

SHARQ XALQLARI DOSTONCHILIGIDA “TOHIR VA ZUHRA” SYUJETI

Gulxumor Abdufattoyevna Abdusamatova

rich_1985@mail.ru

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Annotatsiya: Mazkur maqola “Sharq xalqlari dostonchiligida “Tohir va Zuhra” syujeti” deb nomlanib, unda Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida ommalashgan dostonlar haqida ilmiy ma’lumotlar beriladi. Jumladan, “Tohir va Zuhra” dostonining zamonaviy teatr sahnalarida mualliflik musiqali drama, opera asarlari darajasida namoyish etilishi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: doston, “Tohir va Zuhra”, opera, musiqali drama, teatr

THE PLOT OF “TAHIR AND ZUKHRA” IN THE EPIC OF THE EASTERN PEOPLE

Gulkhumor Abdufattoyevna Abdusamatova

rich_1985@mail.ru

Uzbek National Music Art Institute named after Yunus Rajabi

Abstract: This article presents scientific information about the epic, popular in the oral literature of the peoples of Central Asia. In particular, it is noted about the epic “Tahir and Zuhra” and its performance on modern theater stages at the level of original musical dramas and operatic works.

Keywords: epic, “Tahir and Zuhra”, opera, musical drama, theater.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodiyotining badiiy qadriyatlaridan biri hisoblangan dostonlarning syujet asoslari qadimiyligi, baxshilar bisotida xilma-xil ijod va ijro yo‘llari tarzida keng tarqalganligi, rang-barang dostonnamo talqinga egaligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyo xalqlari orasida “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Ravshan va Zulxumor”, “Qo‘zi Ko‘rpesht-Bayan sulu” singari ommalashgan ishqiy-lirik dostonlarning zamonaviy teatr sahnalarida mualliflik musiqali drama, opera asarlari darajasida namoyish etilishi yangi ijodiy voqelikka aylandi.

Yuqorida nomlari keltirilgan dostonlardan ayniqsa “Tohir va Zuhra” mahalliy xalqlar orasida g‘oyat keng tarqalgan. Shuningdek, u afsona, qissa va ertak ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur doston turkiy xalqlar kitobiy eposining ishqiy-sarguzasht turiga mansub bo‘lib, undagi voqealar XVII asrdan boshlab yozma manbalarga ko‘chgan. Doston 6-7 xil variantda bayon etilgan va asosan jonli ijro

hamda qo‘lyozma yoki toshbosma nusxa orqali¹ ommalashgani haqida ma‘lumotlar mavjud. Har bir variantda bolalikdanoq beshikkerti² qilingan shoh qizi Zuhra hamda vazirning o‘g‘li Tohir o‘rtasidagi ilohiy ishq, vazir vafotidan so‘ngra shohning o‘z ahdidan qaytishi, sevishganlarning barcha to‘siqlarni yengishi kabi voqealar haqida so‘z boradi. Dostonning fojeaviy nuqtasi shundan iboratki, beshikkerti qilingan Tohir va Zuhrani bir-biridan ajratib bo‘lmasligi natijasida ularning bevaqt o‘limi bilan yakun topadi.

Ma‘lumki, “Tohir va Zuhra” dostonining mahalliy versiyalari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, atoqli venger olimi Herman Vamberi tomonidan 1867-yilda “Chig‘atoy tilidan qo‘llanma” nomli uch qismli ilmiy-tadqiqod asarining 2-qismida “Tohir va Zuhra” qissasidan bir parcha chop etilgan.³ O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham mazkur dostonning bir necha variantlari Osiyo xalqlari adabiyotlarida qayd etilgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, XVII asrda yashab ijod etgan atoqli o‘zbek adabiyotshunosi, shoir Sayyid Muhammad Sayyodiy⁴ tomonidan yozilgan “Tohir va Zuhra” dostonining takomillashtirilgan, sayqallashtirilgan namunasi o‘z zamonida sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan.⁵ Doston mazmuni yozma adabiyot an‘analari asosida bayon qilingan bo‘lib, unga 50 dan ortiq g‘azal shaklidagi she‘riy parchalar kiritilgani ma‘lum. Bu g‘azallar orqali qahramonlar siymosining ta‘sirchanligi oshirilganini, zamondosh o‘quvchilar uchun bag‘oyat muhim bo‘lgan masalalar bayon etilganligini qayd etish mumkin. Masalan, dostonning boshidayoq sevishganlar bilan bog‘liq voqealar “Samarqand sirtida, O‘zjan yurtida” bo‘lib o‘tganligi, unga ko‘ra, norg‘ul Tohir joylangan sandiq to‘lib-toshgan Zarafshon daryosida oqib Amudaryogacha yetib borgani haqida so‘z yuritiladi.

Zamondosh teatrshunos olimi Oltinoy Tojiboyeva o‘zining “Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o‘rni” nomli doktorlik dissertatsiyasida keltirgan ma‘lumotlariga ko‘ra, “... Sayyodiy talqinida beshikkerti qilingani bois Tohir va Zuhra sevgisi ilohiy ishqqa aylangani bayon etiladi. Shoir dostoni mumtoz adabiyotga xos munojot bilan boshlangan bo‘lib, u asosida baxshi Ramatulla Yusuf o‘g‘li ijro etgan o‘zbek xalq dostoni muqaddimasi vazir Sarixon va shoh Qoraxon ta‘rifi bilan boshlanadi.”⁶

¹ Balxda tug‘ilib ijod etgan o‘zbek shoiri Sayyid Muhammad Sayyodiy “Tohir va Zuhra” nomli dostonning og‘zaki namunalari to‘plab, uni yozma adabiyotga o‘g‘irgan va dostonning ilk yozma talqinini yaratgan. // Ф.Маматкулова. “Тоҳир ва Зухра” дostonи туркий версияларининг киёсий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.,2020.,28-bet.

² Beshikkerti – bolalarni beshikdaligidayoq unashtirib qo‘yish odati. // Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008). // <https://ziyouz.uz>. 246-bet.

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona>. // Herman Vamberi.

⁴ Сайёдий (XVII аср)-www.ziyouz.uz. // <https://ziyouz.uz/sayyodiy>.

⁵ Bu haqda qarang: Садекова А. Традиции Сайяди (XIV В.) в татарских дастанах о Тахире и Зухре. Текст научной статьи по специальности “Языкознание и литературоведение”. // <https://cyberleninka.ru>.

⁶ Тожибоева О. Марказий Осиё театrlари тарихида халқ эпосининг ўрни. Санъатшунослик фанлари бўйича докторлик диссертацияси. // Дисс.-504/2012. Тошкент – 2011., 81-bet.

Tatar adabiyotida ham Sayyodiy an'anasini davom ettirgan Ahmad Muhammadzarif o'g'li Qurmasliy tomonidan yaratilgan "Qissai Tohir ila Zuhra" asari⁷, qozoq qissaxoni Aqilbek Sabal o'g'li tomonidan "Qissai Tahir-Zuhra"ning she'riy yo'sinda yozilgan namunasi mavjud bo'lib, u 1911-yilda Qozonda chop etilgan.⁸ Jumladan, 1963-yilda nashrdan chiqqan "Qadimgi tatar adabiyoti" nomli kitobda olim Xey Xisimatullinning "Dastan Babaxan" asari ham tatar xalqi orasida mashhur.⁹

Qolaversa, "Tohir va Zuhra" ishqiy doston syujeti qozoqlarning "Qo'zi Ko'rpesh Bayan sulu" dostoni bilan o'xshashligi bor.¹⁰ Mazkur dostonlardagi qahramonlarining fe'l-atvorini quyidagicha qiyoslash mumkin:

"Qo'zi Ko'rpesh Bayan sulu" dostoni qahramonlari tavsifi		"Tohir va Zuhra" dostoni qahramonlari tavsifi	
Qo'zi Ko'rpesh	Bayanga oshiq, mard, kelishgan yigit	Tohir	Zuhraga oshiq, mard, jasur yigit
Bayan sulu	Qo'ziga oshiq, jasoratli, kurashchan qiz	Zuhra	Tohirga oshiq, sevgisiga sadoqatli qiz
Qoraboy	Bayanning otasi - boyluk quli, johil kishi	Xon Boboxon	Zuhraning otasi, shox - qat'iyatsiz, boylukni insoniylikdan ustun qo'yadigan johil kishi
Qodar	Bayanga oshiq, sevgisi rad etilgan alamzada yigit	Qorabotir	Zuhraga oshiq, taxtni egallash yo'lida har qanday tubanlikka tayyor yovuz yigit

Shuningdek, qardosh turk xalqida ham "Tohir va Zuhra" ("Tohir ile Zühre") nomli doston mavjud. Uning bir nechta versiyasi Istanbul shahrida nashr ettirilgan.¹¹ Unda sultonning qizi Zuhra va vazirning o'g'li Tohirning o'lim bilan yakun topgani haqida hikoya qilinadi. Jumladan, o'zbek dostoni versiyasidan farqli o'laroq, turk dostonida oshiqlarning sevgisiga Zuhraning onasi buyrug'i bilan Qoratikan (Karadigan) laqabli arab xizmatkorining to'sqinlik qilishi bayon etiladi. Turkcha doston nasriy shaklda bayon etilgan bo'lib, u taxminan XVII asrda Sharqiy Onado'li¹²

⁷ Мухаметзянова Л. Дастан "Тахир и Зухра" татарского народа.// <https://www.gramota.net>.

⁸ <https://cyberleninka.ru>. // Ещё об одном варианте дастана "Тахир и Зухра".

⁹ <https://tatarica.org/ru/razdely/kultura/folklor-verbalnyj/tatarskij-epos/dastan-babahan>.

¹⁰ Dostonda bolalikdan beshikkerti qilingan Qo'zi va Bayan muxabbati, ularning sevgisiga qarshi Bayanning otasi Qoraboy munosabati, Qo'zining raqibi Qodarning yovuzligi kabi voqe'alar aks ettirilgan.// Qarang: Тожибоева О. Марказий Осиё театрлари тарихида халқ эпосининг ўрни. Санъатшунослик фанлари бўйича докторлик диссертацияси. // Дисс.-504/2012.Тошкент – 2011., 114-bet.

¹¹ <https://www.wikipedia.org>// Tahir ile Zühre.

¹² <https://www.google.com/m.youtube.com>// Tahir ile Zühre meselesi.

mintaqasida afsonaga aylangan ekan. "Tohir ile Zühre" da ta'riflanishicha, sevishganlarning bir-biriga bo'lgan ishq-muhabbati musiqa vositalari yordamida ochib berilgan. Masalan, Tohir bilan Zuhra pinhona uchrashuvlarda soz jo'rligida türkü¹³ kuylaydilar: Tohir: "Aşk adını koydu, en tatlı zehre, ateşle kalbime vurulan mühre, gökteki yıldız benzemez yarım, Zührem'e benziyor, gökteki Zühre." Ya'ni, Tohir: "... eng totli zahar ekan bu ishq, yuragimni yondirdi u olov kabi, yorim ko'kdagi yulduzga o'xshamas, Zuhramga o'xshaydi ko'kdagi zuhra",¹⁴ - deya kuylaydi.

Shuningdek, hozirgi kunda taniqli turk shoiri Nozim Hikmat qalamiga mansub "Tohir ile Zühre meselesi" nomli g'azalining ikki bayti quyidagichadir:

Tahir olmak da ayıp değil Zühre olmak da
Hattâ sevda yüzünden ölmek de ayıp değil,
Bütün iş Tahirle Zühre olabilmekte yani yürekte.
Tahir olmak da ayıp değil Zühre olmak da.

Tarjimasi:

Tohir bo'lmoq ayb emasdir, Zuhra kabi bo'lmoqlik ham,
Aslo ayb sanalmas hatto, sevgi deya o'lmoqlik ham.
Tohir, Zuhra bo'lmoqlik chun, asli kerak ulkan yurak,
Tohir bo'lmoq ayb emasdir, Zuhra kabi bo'lmoqlik ham.¹⁵

Ushbu g'azalda shoir sevgining kuch-qudrati xaqida ta'rif bergan. U nomdor san'atkorlar tomonidan kuyga solinib, muntazam ijro etiladi. Masalan, hozirgi kunda Eşin Afsar, Volkan Konak, Sema, Yavuz Bingol, Yusuf Albayrak singari xonandalarning qo'shiqlari ommaviy axborot vositalari orqali tinglovchilarga tanish.

Asrlar osha mahalliy folklorda og'zaki va yozma ravishda o'tib kelayotgan "Tohir va Zuhra" rivoyati xususan, turkman xalqi orasida ham keng tarqalgan. Buyuk turkman adibi Mullanafasning "Zuhra va Tohir" nomli mashhur dostonida ikki yoshning o'tli muhabbati orqali xalqning orzu va istaklari kuylanadi.¹⁶ Mullanafas to'qigan dostonida asosiy voqealar Tohir emas, balki Zuhra yetakchiligida ro'y beradi. Zero, "Zuhra va Tohir" deb nomlanishi ham ana shundan. Adibning dostonida keltirishicha, "Tatar mamlakati"da podshoh Boboxon va vazir Bohir intiq kutgan farzandlarning dunyoga kelishi bilan boshlanadi. Asarda shoir ezgulik bilan qabohat o'rtasidagi kurashni ko'rsatar ekan, bunda o'ziga xos yo'ldan boradi. Zuhra va Tohirning bir-biriga vafodorligini, hukmdorlarning adolatsizligini, xiyonatkorligini yorqin bo'yoqlar orqali ifodalab bergan. 1938 yilda "... Turkmaniston teatrida Xo'janapas Choriyev asari asosida "Zuhra va Tohir" musiqali dramasi sahnaga qo'yilgan (rej. A.Qulmamedov,

¹³ Türkü- bu turk xalq dostonlarini qo'shiq orqali bayon etilishi. // <https://tr.wikipedia.org>.

¹⁴ "Tahir ile Zühre" nomli turk dostonidan parcha. // <https://www.google.com/m.youtube>. Tarjimasi bizniki.

¹⁵ Tahir ile Zühre šiiri. // <https://www.google.com/m.youtube.com>. // She'riy tarjimasi bizniki.

¹⁶ Mullanafasning "Zuhra va Tohir" dostoni qo'lyozma holda emas, balki turkman baxshilari ijrosi orqali og'izdan-og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Qarang: A.Бобониёзов. "Ишқ мулкининг шохи". // Муллаанафас."Зухра ва Тоҳир" дostonи, шеърлар. Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2010.,3- bet.

B.Amonov). Keyinroq, Maxtumquli nomidagi Turkman opera va balet teatrida mana shu asar asosida opera sahnalashtirildi, garchi u muvaffaqiyat qozonmagan bo'lsa-da, opera janri qonuniyatlarini o'zlashtirishda ahamiyatli bo'ldi".¹⁷

Ma'lumki, "Tohir va Zuhra" dostoni hozirgi kunga qadar g'arbiy turkshunoslar: G.Rokutti tomonidan Qashqarda, G.Yarring tomonidan esa Xo'tanda yozilgan to'rtta uyg'ur varianti yozilgan. Uyg'ur variantining she'riy namunasi nemis va ingliz tillariga transkripsiya bilan tarjima qilingan.¹⁸ Ozarbayjonlik tadqiqodchi Mamed Guseyn Taxmasib "Tohir-Zuhra"ning yigirmaga yaqin xalq og'zaki versiyasi mavjudligini bildirgan. Boshqird folklorshunoslari tomonidan ham Orenburg viloyati va Boshqirdiston Respublikasi hududida shu nomli dostonning turli hajmli o'n beshta varianti topilgan.¹⁹ Aytish joizki, Tohir bilan Zuhraning chin muhabbati haqidagi doston syujeti nafaqat qozoq va uyg'ur, turkman va tatar, boshqird va qrim-tatar, ozarbayjon va turk xalqlari orasida mashxur bo'libgina qolmay, uning o'ziga xos talqinlari qoraqalpoq, gagauz, qo'miq, darg'in xalqlari adabiy-musiqiy merosida ham uchraydi.

Yuqorida keltirilgan doston versiyalarining deyarli barchasida Tohir va Zuhra, Qorabotir, Mohim siymolari o'rtasidagi "muhabbat uchligi" (Tohir-Zuhra-Qorabotir; Zuhra - Tohir - Mohim, Zuhra - Tohir - Yulduz) munosabati syujetning asosi hisoblanadi. "Tohir va Zuhra"da voqealarni sharhlab, qahramonlar xatti-harakatini kuzatib boradigan hikoyachi siymosining vazifasi "ovoz" orqali amalga oshiriladi. Asar voqealarining boshlanishidagi holat, ya'ni Boboxon bilan uning vaziri Bohirning farzandsizlik dardini ochib berish talqini "ovoz" sharhi orqali voqealarni to'ldirib boradi.

Ma'lumki, o'zbek dramaturgiyasida dostonlarning epik syujetini ijodiy qayta ishlash asosida yaratilgan dramatik asarlar alohida o'rin tutadi. Jumladan, "... xalq orasida keng tarqalgan "Tohir va Zuhra" dostoni syujeti asosida dastlabki spektakl "1923-yil Xivada "Xalq uyi" havaskorlik teatrida ilk bora Fotihiy Burnosh tomonidan sahnalashtirilgan. Unda Zuhra rolini Xanskaya, Tohirni Yoqub Devonov, xonni Masharif Polvonov ijro etgan."²⁰

Adabiyot va she'riyat tarixida chuqur iz qoldirgan shoir, yozuvchi va dramaturg Sobir Abdulla tomonidan Sayyodiyning "Tohir va Zuhra", Mullanafasning "Zuhra va Tohir" nomli dostonlariga ijodiy yondashgani ma'lum. Xususan, Tohir va Zuhraning ishqiy sarguzashtlari Sayyodiy uchun shaxs erki, ijtimoiy tengsizlik masalasini ko'tarib chiqish, unga keng kitobxonlar e'tiborini tortish imkoniyatini bergan. Sobir Abdulla

¹⁷ Тожибоева О. Марказий Осиё театрлари тарихида халқ эпосининг ўрни. Санъатшунослик фанлари докторлик диссертацияси Автореферати. Тошкент – 2011. 3-бет. // <https://uchebana.ru>.

¹⁸ <https://cyberleninka.ru>. // Ещё об одном варианте дастана "Тахир и Зухра".

¹⁹ Маматкулова Ф. "Тоҳир ва Зухра" дostonи туркий версияларининг киёсий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. //10.00.08-Фольклоршунослик.Т.,2020.,13-бет.

²⁰ Тожибоева О. Марказий Осиё театрлари тарихида халқ эпосининг ўрни. Санъатшунослик фанлари бўйича докторлик диссертацияси. // Дисс.-504/2012.Тошкент – 2011., 82-бет.

ham o‘z dramatik asarida oshiqning pokiza, lekin fojiali sevgi mavzusini yoritish bilan bir qatorda, xalqqa bo‘lgan adolatsizlikka qarshi kurash voqealarini kiritgan. Har ikkala adib ham doston qahramonlarining ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi hamda tabiatiga hos chizgilarni yuksak mahorat bilan ifodalashga erishgan. Masalan, podsho Boboxon va uning vaziri Bohirga olma hadya etgan Xizrning ularga murojaati nazm yo‘lida bayon etilgan:

Sayyodiy versiyasida ²¹ :	Sobir Abdulla versiyasida ²² :
O‘g‘il bo‘lsa, ikovi do‘st bo‘lsun, Ikovi bir tanu, bir po‘st bo‘lsin. Agar qiz bo‘lsalar, bo‘lsun dugona, Ikov bir-biriga bo‘lsun jonona. O‘g‘il-qiz bo‘lsalar, xamdard bo‘lsun, Bu shartdan kim tonar, nomard bo‘lsun.	Ikkingiz qiz ko‘rsangiz, bo‘lsunlar chin dugona, Ikki o‘g‘il bo‘lsalar, og‘a-ini mardona. Gar o‘g‘il va qiz bo‘lsa, quda bo‘lingiz beshak, Bu Allohning amridur, aslo keltirmangiz shak.

Bundan ko‘rinadiki, Sobir Abdulla tomonidan mazkur doston mazmunan boyitilib, folklor motivlaridan ijodiy hamda erkin foydalanilgan. Shuningdek, dramaturg tomoshabinlar hamda teatr tanqidchilarining mulohazalarini e‘tiborga olib, “Tohir va Zuhra”ni qayta-qayta ishlagan, uning badiiy saviyasini ko‘tarishga harakat qilgan. Adib “...“Tohir va Zuhra”ning yettiga yaqin variantlarini yozib, 4 yil mobaynida uch bora qayta ishlagan.”²³ Natijada epik turga mansub asar kuchli ishq-muhabbat syujeti badiiylashtirilib sahna asari sifatida jonli ijroda namoyish etilgan. Xususan, Tohir va Zuhraning his-tuyg‘ularini, orzu va umidlarini, xatti-harakatlarini hassos sozanda va bastakor To‘xtasin Jalilov xalqchil uslubda, go‘zal va maftunkor musiqa namunalari orqali aks ettiradi. “Tohir va Zuhra”gacha romantik mavzu asosida yaratilgan bir qator sahna asarlari tomoshabinlarga havola etilgan bo‘lsada, biroq u kabi talaygina ihlosmandga erisha olmaganini tayin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” singari dostonlarning syujeti talqinlari sharq xalqlari dostonchilik san’atida katta o‘rin tutadi. O‘zbek teatri sahnasida hozirda ham “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Alpomish”, qozoq teatr sahnasida “Qoblandi”, “Enlik-Kebek”, qirg‘iz teatr sahnasida “Janil Mirza”, shuningdek, turkmanlarda “Kaymir ko‘r”, qoraqalpoqlarda “Alpamis”, hamda tojik teatri sahnasida “Rustam va Suhrob” singari dostonnamo musiqali spektakllar zamondosh san’atsevar tomoshabinlarga tanish, albatta. Amalga oshirilayotgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, endilikda xalq dostonlari zamonaviy teatrning yangi milliy shaklini topish yo‘lida muhim tayanch vositaga

²¹ Сайёдий. Тохир ва Зухра. Нашрга тайёрловчи: Т.Нишонбоева.-Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.,159-bet.

²² Собир Абдулла. “Тохир ва Зухра”. Пьесалар. 2-жилд, Ф.Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, Т.,1969., 15- bet.

²³ Абдурахмонова М. Собир Абдулла. “Фан” нашриёти, Тошкент-1980., 79-bet.

aylanib bormoqda. Ular asosida musiqali dramalar uchun yangi pyesalar, operalar uchun librettolar yaratish va sahnalashtirish natijasida xalq og‘zaki ijodining milliy va umuminsoniy mazmunini ko‘proq tushunish imkoniyatiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.Абдурахмонова. Собир Абдулла. “Фан” нашриёти, Тошкент-1980.
2. А.Бобониёзов. “Ишқ мулкининг шоҳи”. // Муллаанафас.”Зухра ва Тоҳир” достони, шеърлар. Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2010.
3. Ф.Маматкулова. “Тоҳир ва Зухра” достони туркий версияларининг қиёсий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.,2020.
4. Сайёдий. Тоҳир ва Зухра. Нашрга тайёрловчи: Т.Нишонбоева.-Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
5. Собир Абдулла. “Тоҳир ва Зухра”. Пьесалар. 2-жилд, Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, Т.,1969.
6. О.Тожибоева. Марказий Осиё театрлари тарихида халқ эпосининг ўрни. Санъатшунослик фанлари бўйича докторлик диссертацияси. // Дисс.-504/2012. Тошкент – 2011.
7. О.Тожибоева. Марказий Осиё театрлари тарихида халқ эпосининг ўрни. Санъатшунослик фанлари докторлик диссертацияси Автореферати. Тошкент – 2011.
8. Мухаметзянова Л. Дастан "Тахир и Зухра" татарского народа.// <https://www.gramota.net>.
9. Сайёдий (XVII аср)-www.ziyouz.uz. // <https://ziyouz.uz/sayyodiy>.
10. Садекова А. Традиции Сайяди (XIV В.) в татарских дастанах о Тахире и Зухре. Текст научной статьи по специальности “Языкознание и литературоведение”. // <https://cyberleninka.ru>.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008). // <https://ziyouz.uz>.
12. Herman Vamberi.// <https://kh-davron.uz/kutubxona>.
13. Ещё об одном варианте дастана “Тахир и Зухра”.// <https://cyberleninka.ru>.
14. Tahir ile Zühre. // <https://www.wikipedia.org>
15. Tahir ile Zühre meselesi //<https://www.google.com//m.youtube.com>.
16. Tahir ile Zühre şiiri. // <https://www.google.com//m.youtube.com>
17. Ещё об одном варианте дастана “Тахир и Зухра”.// <https://cyberleninka.ru>.
18. <https://tatarica.org/ru/razdely/kultura/folklor-verbalnyj/tatarskij-epos/dastan-babahan>.
19. <https://tr.wikipedia.org>.

20. <https://www.google.com./m.youtube>.